O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ANDIJON VILOYATI BULOQBOSHI TUMANI HOKIMINING QARORI

Buloqboshi tumani, M.Ismoiliy ko‘chasi 6-uy, tel: (74) 773-25-60, 223-90-49 (faks)

2023 - yil 13 - dekabr 155-1-20-Q/23 Buloqboshi tumani hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 5 dekabrdagi 965-sonli qaroriga asosan 2024 yilda ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Aholini ish bilan ta’minlash to‘g‘risida”gi Qonunining (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998 y, 5, 6-son, 97-modda) 17-moddasi, “Nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunining (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlar to‘plami, 2008 y, 29-30-son, 277-modda) 25-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 5 dekabrdagi “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 965-sonli qaroriga asosan, tumanda 2024 yilda ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 25-moddalariga asosan;

QAROR QILAMAN:

1. Tumandagi ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish joylarining eng kam miqdorini belgilash bo‘yicha komissiya tarkibi 1-ilovaga, 2024 yilda mazkur toifadagi shaxslar uchun ish joylarining eng kam miqdori belgilangan korxonalar va tashkilotlar ro‘yxati 2-ilovaga asosan tasdiqlansin.

- 2-ilovaga muvofiq hodimlarning ro‘yxati bo‘yicha o‘rtacha sonidan 4360 nafarini tashkil etadigan 7.01 foizgacha miqdorida 306 ta ish o‘rni, shu jumladan:

- O‘n to‘rt yoshgacha bolalari va nogiron bolalari bo‘lgan yolg‘iz ota, yolg‘iz ona va ko‘p bolali ota-onalar uchun 1,8 foiz (79 ta ish o‘rni);

- Umumiy o‘rta ta’lim maktablari, o‘rta-maxsus kasb-xunar kollejlari va oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari uchun 3,5 foiz (155 ta ish o‘rni);

- Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun 0,2 foiz (9 ta ish o‘rni);

- Nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun 1,03 foiz (45 ta ish o‘rni) (yuqorida ko‘rsatilgan ish o‘rinlariga tumanda 3-guruh nogironlari ishga joylashish bo‘yicha talab 20 ta bo‘lganligi sababli, kelgusida 28 ta ish o‘rni

bitiruvchilar uchun band etib qo‘yilsin);

- Pensiya oldi yoshidagi shaxslar uchun 0,2 foiz (9 nafar);

- Jazoni ijro etish muassasalaridan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilgan shaxslar uchun 0,2 foiz (9 ta ish o‘rni);

2. Mazkur toifadagi shaxslar uchun ish o‘rinlari hodimlar tomonidan o‘zlarining mehnat majburiyatlarini to‘siqlarsiz bajarilishini ta’minlaydigan sanitariya-gigiena normalari va mehnat sharoitlariga muvofiq bo‘lishi kerak, shu jumladan:

- 14 yoshgacha va nogiron bolalari bo‘lgan yolg‘iz va ko‘p bolali ota-onalar uchun - bolalarni tarbiyalash va mehnat majburiyatlari bo‘yicha majburiyatlar bajarilishini birga qo‘shib olib borish imkonini beruvchi ishning moslashuvchan jadvaliga ega bo‘lgan ish o‘rinlari;

- Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini tamomlagandan keyin kasbni egallagan yoshlar, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari uchun - ularning kasbiy tayyorgarligiga muvofiq bo‘lgan ish o‘rinlari;

- Safarbarlik chaqiriq zaxirasida xizmatni o‘tagan va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun - ularning professional tayyorgarligiga mos bo‘lgan ish o‘rinlari;

- Nogironlar uchun - mehnat sharoitlari bo‘yicha attestatsiyadan o‘tkazilgan va hodimga ularning sog‘ligi holatini va mehnat faoliyatiga to‘g‘ri kelmaydigan belgilangan zidliklar hisobga olingan holda mehnat operatsiyalarini to‘siqsiz bajarish imkonini beradigan ish o‘rinlari;

- Pensiyaoldi yoshidagi shaxslar uchun - ularning kasbiy tayyorgarligiga mos bo‘lgan yoki maxsus malakani talab etmaydigan ish o‘rinlari;

- Jazoni ijro etish muassasalaridan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilgan shaxslar uchun - ularning kasbiy tayyorgarligini hisobga olgan holda yoki maxsus malakani talab etmaydigan ish o‘rinlari;

- Odam savdosi qurbonlari uchun - ularning kasbiy tayyorgarligini hisobga olgan holda yoki maxsus malakani talab etmaydigan ish o‘rinlari xarakterli talablarga muvofiq bo‘lgan mehnat sharoitlarini ta’minlaydigan ish o‘rinlari deb hisoblanadi.

3. Ish o‘rinlari band qilib qo‘yiladigan kasblar va lavozimlar: muhandis, iqtisodchi, hisobchi, huquqshunos, shifokor, hamshira, kichik tibbiy hodim, ish yurituvchi, tarbiyachi, yordamchi tarbiyachi, o‘qituvchi, haydovchi, farrosh, ishchi, qorovul va boshqa kasb talab etilmaydigan ish joylari.

4. Mazkur qarorning 2-ilovaga kiritilgan korxona, tashkilot va muassasalarning rahbarlariga:

- Tashkilot yil boshlanishidan oldin 10 kundan kechikmay muhtojlarni ishga joylashtirish uchun muhtojlar uchun zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlari umumiy sonining kamida 25 (yigirma besh) foizi miqdorida ish o‘rinlari zaxiraga qo‘yilishi va tayyorligini ta’minlashi, shuningdek, bu haqda yil boshlangunga qadar tuman Aholi bandligiga ko‘maklashish markazini xabardor qilishi shart.

- Muhtojlar uchun ish o‘rinlarining qolgan qismini zaxiraga qo‘yish tashkilot (ish beruvchi) tomonidan kalendar yilning birinchi choragi mobaynida ta’minlanadi, bu haqda tuman Aholi bandligiga ko‘maklashish markazi birinchi chorak tamom bo‘lgandan keyin 10 kundan kechikmay xabardor qilinadi.

- Tashkilot har oyda hisobot oyidan keyingi oyning 5-kunigacha tuman Aholi bandligiga ko‘maklashish markaziga ushbu Nizomning 5-ilovasiga muvofiq shakl bo‘yicha muhtojlarni ishga joylashtirish to‘g‘risida axborot taqdim etadi.

- Tashkilot tomonidan muhtojlarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlari tayyorligi to‘g‘risida axborot taqdim etilmasligi, teng darajada zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarining belgilangan soni hisobiga ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining amalda tayyor emasligi tuman hokimining qarori bajarilmasligi sifatida qaraladi.

5. Tuman hokimining mazkur qarori bajarilmagan taqdirda tashkilotning mansabdor shaxsiga, shuningdek, ularni ishga qabul qilish asossiz ravishda rad etilganligi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ma’muriy javobgarlik belgilanadi.

6. O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirining “O‘zbekiston Respublikasi Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan subsidiya va grantlar ajratish tartibi to‘g‘risida Nizomni tasdiqlash haqida”gi (AV ro‘yxat raqami №3163-son, 31.05.2019 y) buyrug‘iga asosan “ijtimoiy ehtiyojmand aholi qatlamlariga mansub shaxslarni kvotalangan eng sondan ortiq miqdorda ishga qabul qilgan tashkilotlarga – har bir hodim uchun 12 oy davomida har oyda eng kam oylik ish haqining 2 baravari miqdorida subsidiyalar ajratilishi” inobatga olinsin.

7. Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i (X.Yuldashev) besh kun muddatda ushbu qaror 2-ilovasida ko‘rsatilgan tashkilot rahbarlari e’tiboriga yetkazsin.

8. Ushbu qaror 2024 yil 1-yanvardan kuchga kiritilsin.

9. Mazkur qaror matni “Buloqboshi” gazetasida rasmiy e’lon qilinsin va hokimlikning veb-saytiga joylashtirilsin.

10. Mazkur qaror qabul qilinishi munosabati bilan tuman hokimining 17.10.2022 yildagi №215-1-20Q/22-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

11. Ushbu qaror bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (F.Bo‘taxonov) hamda tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i (X.Yuldashev)lar zimmasiga yuklatilsin.

Туман ҳокими **O'.Mamurov**

Buloqboshi tuman hokimining
2023-yil 13-dekabrdagi
155-1-20-Q/23-son qaroriga
1-ilova

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar uchunish joylarining eng kam miqdorini belgilash bo‘yicha komissiya

TARKIBI

F.Bo‘taxonov kambag‘allikni o‘rinbosari,	-	Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi Ishchi komissiya raisi
X.Yuldashev	-	Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashi bo‘limi boshlig‘i, Ishchi komissiya kotibi

A’ZOLARI

I.Tumanov	-	Tuman hokimining yoshlar masalalari bo‘yicha o‘rinbosari
X.Azimov	-	Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashi bo‘limi Davlat mehnat huquq inspektori

Buloqboshi tuman hokimining
2023-yil 13-dekabrdagi
155-1-20-Q/23-son qaroriga
2-ilova

Buloqboshi tumanida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 5-dekabrdagi 965-son qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga asosan korxona va tashkilotlarda 2024 yil uchun band qilib qo‘yilgan ish o‘rinlari to‘g‘risida

MA’LUMOT

№	Korxona va tashkilotlar nomi	SHtat jadvali bo‘yicha hodimlarining umumiy soni	Kelgusi yilga zaxiraga qo‘yish taklif etilayotgan ish o‘rinlari soni	shu jumladan:						
				14 yoshgacha va nogiron bolalari bo‘lgan yolg‘iz va ko‘p bolali ota-onalar uchun	Umumiy o‘rta maxsus, kasb-xunar ta’limi muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari	Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun	Nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun	Pensiya oldi yoshidagi shaxslar uchun	Jazoni ijro etish muassasalaridan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilgan shaxslar uchun	Odam savdosi qurbonlari uchun
	JAMI	**4360**	**306**	**79**	**155**	**9**	**45**	**9**	**9**	**0**
1	3-maktab	124	**8**	2	4	1	1			
2	5-maktab	152	**10**	3	5		1	1		
3	7-maktab	64	**4**	1	2		1			
4	8-maktab	70	**5**	1	3		1			
5	10-maktab	84	**6**	2	3		1			
6	11-maktab	60	**4**	1	2		1			
7	12-maktab	81	**6**	2	3		1			
8	15-maktab	82	**6**	2	3		1			
9	17-maktab	88	**7**	2	3		1	1		
10	23-maktab	94	**7**	2	3	1	1			
11	24-maktab	92	**7**	2	3		1	1		

12	25-maktab	65	**5**	1	3		1			
13	26-maktab	100	**7**	2	3		1		1	
14	27-maktab	103	**7**	2	3		1	1		
15	29-maktab	68	**5**	1	3		1			
16	31-maktab	60	**4**	1	1		1	1		
17	43-son matematika faniga ixtisoslashtirilgan davlat umumta’lim maktabi	58	**4**	1	1	1	1			
18	1-MTT	50	**3**		2		1			
19	2-MTT	66	**5**	1	3		1			
20	3-MTT	53	**4**	1	2		1			
21	7-MTT	36	**3**		2		1			
22	10-MTT	37	**3**		2		1			
23	11-MTT	38	**3**		2		1			
24	14-MTT	43	**3**		2		1			
25	16-MTT	44	**3**		2		1			
26	17-MTT	80	**6**	2	3		1			
27	18-MTT	82	**6**	2	3		1			
28	1-son kasb-xunar maktabi	85	**6**	2	3		1			
29	Yo‘llardan foydalanish korxonasi	49	**3**		2	1				
30	14-son bolalar musiqa va sa’nat maktabi	53	**4**	1	2		1			
31	Obodonlashtirish bo‘limi	174	**12**	4	1	2	1	1	3	
32	Tibbiyot birlashmasi	2025	**140**	38	76	3	15	3	5	